



AZIZBEK NOROVNING “KIMNINGDIR HIKOYASI” DA TA’RIF VA TALQIN UYG’UNLIGI

Ergasheva Xurshida,

*Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat
universiteti magistranti*

Mustaqillik yillarida badiiy adabiyotning mavzu doirasi ancha kengayib inson konsepsiyasi bosh atributga aylandi. Bu davr o‘zbek hikoyachiligida Nazar Eshonqulning “Maymun yetaklagan odam”, Ulug‘bek Hamdamning “So‘z” Abduqayum Yo‘ldoshning “Bir tun va bir umr” qissa va hikoyalar to‘plami, Xurshid Do‘stmuhammadning “Beozor qushning qarg‘ishi” hikoyalar to‘plami, Nazar Eshonqulning “Yalpiz hidi” qissa va hikoyalar to‘plamlari o‘ziga xos hodisa.

O‘zbek hikoyanavisligiga Azizbek Norov ham o‘z yo‘li va o‘z ovozi hamda o‘ziga xos dunyo qarashi bilan kirib kelgan yozuvchilarimizdan biri. Azizbek Norov 1990-yil 15-aprel kuni Qashqadaryo viloyatining Qarshi shahrida tug‘ilgan. Qarshi davlat universitetining rus tili va adabiyoti bo‘limini tugatgan. Yozuvchi, badiiy tarjimon va journalist. 2021 yilda ilk hikoyalar to‘plami – “Eynshteyn jumbog‘i” nashr qilingan. A. Norov o‘zining uslubi, g‘arb va sharq prozasining yuksak ideallari va badiiy sintezini ifoda etgan “Eynshteyn jumbog‘i”, “Kimningdir hikoyasi”, “O‘tmish ko‘z yumgan voqea”, “Zulmat va ziyo” kabi hikoyalari va “Azal va abad yo‘li” qissasi bilan keng kitobxonlar ommasiga tanildi. Jumladan, “Kimningdir hikoyasi” deb nomlanuvchi hikoyaning nomi ham o‘ziga xos. Har bir yozuvchi o‘z asariga nom berishda biror bir voqelikka yoki biron sababga tayanadi. Chunki bu nom kitobxonda asar haqidagi ilk fikrni tug‘ilishiga sabab bo‘ladi. Ammo, yozuvchi bu hikoyaga nom berishda o‘ziga xos uslubdan foydalangan. Asariga nom qo‘yishni o‘rniga “Kimningdir hikoyasi” deb nomlagan. Ijodkor badiiy nutqiga ko‘ra asarlarida epigrafdan ham foydalanish mumkin. Epigraf (yun. — ustki yozuv) — 1) Yunonistonda qabr toshlari ustidagi yozuv; 2) adabiy asar yoki uning biror qismi (bobi)ning tepasiga yozib qo‘yilgan va shu asar yoki qism (bob) mazmunini ifodalaydigan, asosiy yo‘nalishini belgilab beradigan teran ma‘noli ibora, [maqol](#), matal, hikmatli so‘z, qo‘shiq, [she‘r](#) yoki o‘zga bir manbadan olingan parcha. Epigraf iqtibos yoki ko‘chirmaning barcha xususiyatlariga ega bo‘lib, asosiy matnga o‘ziga xos kirish vazifasini o‘taydi. Ularsiz ba‘zan badiiy asarning mohiyatini anglash mumkin bo‘lmay qoladi. Parodiyalarda ham epigraf qo‘llaniladi. “Kimningdir



hikoyasi” da epigrafning o’rnida shunday jumla bor “Qaysidir asardan olingan epigrafning o’rni”.

“Kimningdir hikoyasi” hikoya qahramoni Normurod Turdievning holatini tasvirlash bilan boshlanadi. Yozuvchi hikoyaga sana bermaydi “Qaysidir zamonning qaysidir kuni”. Nega bunday boshlandi chunki, biz hozir hayotimizda kunlarga e’tibor bermay qo’ydik. Kecha, bugun, erta hammasi bir xil bo’lib qoldi, shuning uchun ham kunning sanasi muhim emas. Hikoyada bugungi kunimizning eng dolzarb muaamosi haqida gap ketadi. Ya’ni “Yozuvchilik ham qiyin bo’lib qoldi”. Bunday deyilishini sababi ham keltiriladi, chunki ikta gapni eplab yoza oladigan insonlar ham o’zini yozuvchi deya hisoblayapti. U ham mayli yozuvchilar qatori munaqqidlar ham ko’paydi. Biz tanqid deganda faqat biror asarning kamchiliklarini aytishni yoki u asarning nuqsonlarini topishni tushanamiz. Ammo Ozod Sharofiddinov aytganidek “Ijodkor ijod bog’iga bolta emas tokqaychi olib kirishi kerak”. Bu hikoyada bugungi adabiy jarayonimiz tasvirlangan, istagan inson yozuvchi, istagan inson esa munaqqid ya’ni tanqidchi.

Normurod Turdiev ijodxonasiga borgandan so’ng yozuv stolini yetti bor aylanadi. Ayni paytda yetti jodu raqami bilan bog’liq mifologik qarashlar hikoya mohiyati haqida hali o’zbek olimlari tadqiq qilmagan yangicha, original talqinlarga asos beradi. Ma’lumki, Alisher Navoiyning ramziy-tasavvufiy dostoni “Lison ut-tayr”¹da ham qushlar Semurg` qushni izlab, tasavvufning yetti bosqichini ramziy ma’noda ifodalangan yetti vodiyni oshib o’tib, nihoyat asar xotimasida o’ttizta qush – o’zlari qoladi.

Hikoyada yozuvchi Normurod, hikoya qahramoni Matnazar (u ham hikoyada yozuvchi), rais Xolto’ra va yozuvchining o’zi ishtirok etadi. Hikoya o’ziga xos uslubda yozilgan, hozirgi zamon hikoyalari insonning tashqi qiyofasiga emas, balki ichki dunyosiga, ichki holatiga va kechinmalariga diqqat qaratyapti. Bu holatlarni ochib berishga harakat qilayapti. Hikoyaning boshlanishida Normurod Turdiev bir hikoya yozayotganligi haqida gap ketadi. Hikoyaning nomi “Matnazarning o’limi”. Hikoyaning qahramoni ham yozuvchi bo’ladi. U ijod qilayotgan paytida chiroq o’chib qolishi va chiroqni elektr tarmog’idagilar o’chirmaganini, nima uchun chiroq o’chganini aniqlayman deganda to’k uradi va Matnazarning o’limi bilan hikoya yakunlanadi. Yozuvchi hikoyasini davom ettirar ekan birdan to’xtatadi “Bugunga yetar. Shu joyida hikoyamni to’xtataman.” deb o’zi haqida, o’zining idrok va munosabatlari haqida yoza boshlaydi. Yozuvchi hayot haqida, bu hayotdagi o’yinlar



haqida fikrlarini keltiradi. “ Nega deganda bu olamda hayot degan o‘yin hukmronlik qiladi. Uning o‘z tartib qoidalari bor. U bu tartib qoidalarni buzganni jazoga tortishdan qanoatlanmay, o‘yin ishtirokchisini bu olamdan chetlashtiradi, badarg‘a qiladi. Taassufki, bu badarg‘alik hukmi muddatsiz.” Ha, bu hayot yozilgan va yozilmagan qonunlardan iboratdir. Yozuvchi insonning o‘lishini badarg‘alikka o‘xshatadi va buni muddati qancha ekanligini bilmaydi. Hikoyada “Ongning qotish jarayoni yuz berayapti. Baayni o‘zi. Ong o‘z idroki shuurini qisman yoki ma‘lum muddatga yo‘qotadi. Tana esa xuddi quvvatga muhtoj uyali aloqa vositasidek quvvatlanishga kirishadi.” degan jumlar ham bor. Bu ongning qotishi fan tarafidan ham isbotlangan. Uyqu kichik o‘limdir, chunki, bu jarayonda miya o‘zining tahlil qilish jarayonini to‘xtatar ekan va butun organizm fnonikti susayar ekan. Hatto yurak ham sekin-sekin urar ekan. Organizm uyqu paytda o‘zini qayta tiklar ekan ya‘ni energiya to‘plar ekan.

Yozuvchi o‘zbek tilining ajoyib ibora qatlamadan mahorat bilan foydalanadi. Har bir holat va vaziyatga go‘zal o‘xshatishlar keltiradi. Masalan, “ O‘ljasini qurshovga olgan arslonday, fikrlarini shaxmat o‘yini oldidan figuralarni doskaga bir tekis tergandek, jo‘nash chiptasi bilan o‘lim poezdi ishtirokchini o‘z manziliga yetkazadi, u uchun svetoforning yashil chirog‘i mudom yoniq” kabi juda ko‘plab iboralar keltirilgan.

Asarda korrupsiya illati borasida ham talqin va ifodalar mavjud. “Aslida, bu dunyoda har bandani sotib olsa bo‘ladi, hatto ona qornidan tushganidan beri vijdoniga gard ham yuqmaganni ham ko‘ndirishning o‘z yo‘llari mavjud. Chunki nafs atalmish dallol buning uddasidan chiqadi” Bu hayotda nafs hech qachon taslim bo‘lmaydigan dushmandir. U sizni o‘ziga taslim qilmaguncha harakatda bo‘ladi, siz unga bo‘ysungandan keyin tinchiydi va o‘z istaklarini amalga oshiradi.

Xulosa qilib aytganda, hikoyani yana tahlil qiladigan bo‘lsak, e‘tibor qaratilmagan ko‘plab qirralari topilishi mumkin. Adabiyot mana shunday qudratga ega. Birgina so‘zdan ham bir olam ma‘no chiqarish mumkin. Azizbek Norov ham bu hikoyasi orqali olam ma‘no yaratgan, deya ikkilanmay aytishimiz mumkin.